

Shoira Sham ijodida aruz vazning tutgan o‘rni

Urganch davlat universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs
talabasi Bobonazarova Gulzoda

Annotatsiya: Ushbu maqolada Shoira Shams ijodida aruz vazning tutgan o‘rniga alohida e‘tibor qaratib o‘tdik va ijodida aruz vazning asosiy 3 bahrlari haqida ham batafsil ma‘lumot berilib, ijodkor lirikasidan misollar keltirish orqali bayt mazmuni izohlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: bahr, aruz, ramal, rajaz, hazaj, g‘azal, solim, mahzuf, musaddas, musamman.

Aruz tizimning eng kichik bo‘lagi sokin, ya‘ni mustaqil undosh yoki cho‘ziq unli, shuningdek, mutaharrak, ya‘ni harakatli, o‘zidan keyin qisqa unli keluvchi undosh harflardir. Ularning turlicha birikuvidan sabab, vatad, fosila deb ataluvchi yirikroq bo‘laklar, ularning ham birikuvidan esa aruz asosi bo‘lgan 8 ta asosiy asl bo‘laklar- ruknlar yuzaga kelgan. Faulun, foilun, mafoiylun, foilotun, mustaf‘ilun, maf‘ulotu, mutafoilun va mafoilatun deb ataluvchi ushbu asl ruknlarning aynan yoki turlicha birikib takrorlanishidan aruz tizimining asosiy o‘lchovlari- bahrlar hosil qilinadi.

Aruz she‘riyatga VIII asrdan tatbiq etilgan mazkur o‘lchov tizimi IX asr boshlaridan fors-tojik adabiyotida ham qo‘llanila boshlandi hamda Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, keyinroq Umar Hayyom, Sa‘diy, Hofiz Sheroziy, Jomiy kabi buyuk shoirlar ijodida mustahkam o‘rin egalladi.

Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishi va izchil rivojlanib borishida Alisher Navoiyning ilk turkiy tilda yaratilgan “Mezon-ul avzon” (“Vaznlar o‘lchovi” asari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

Biz esa quyida Shoira Qalandarova ijodida rajaz bahriga misollar keltirib, ma‘nosini izohlab o‘tdik:

Ramal bahrida 2- bo‘g‘in ochiq bo‘lib qolgan bo‘g‘inlari yopiq hisoblanadi.
Masalan,

Manda rohatdin nishon yo‘q, sanda shavqatdin nishon,

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Issue 7. July 2024

Shu sababdan/ ko‘zima nur/lig‘ jahonim/ yo‘q maning.

- V - - - V - - - V - - - V -

[“Javrikim jondin o‘tar” 77-bet]

Ushbu g‘azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, bayt mazmunini izohlaydigan bo‘lsak, menda rohatdan nishon ham yo‘q senda esa shavqatdan nishon ham yo‘q. Shu sababli ham ko‘zimda nurli jahonim yo‘q degan ma’no anglashiladi.

Furqating ozori tinmay tirnayur bir qush kabi,

Nimta qalbim/ qon, hamon do/rul-omonim/ yo‘q maning.

- V - - - V - - - V - - - V -

Ushbu g‘azal ham ramalli musammani mahzuf vaznida yaratilgan bo‘lib, bu baytda bir qancha badiiy san‘atlardan ham mohirona foydalanilgan. Masalan, qush kabi birikmasi natijasida tashbeh san‘ati qo‘llanilgan. Baytni tahlil qiladigan bo‘lsak, ayriliq azobi tinmay xuddiki bir qush kabi qalbimni tirnaydi va qalbim parcha-parcha bo‘lib, hali-hamon dilim qon va tinch-osuda dorilomon kunlarim haligacha yo‘q degan ma’no kelib chiqadi.

Keyingi keng tarqalgan bahrlardan yana biri hazaj hisoblanib, bu bahr 1- bo‘g‘ini ochiq bo‘lsa bu bahrga to‘g‘ri keladi. Biz quyida Shoira Shams ijodidan bir bayt g‘azalni misol sifatida keltirib o‘tdik va ma’nosini izohlab o‘tdik. Masalan:

Jamoling oldida bu kun ko‘zim yoshi besababdur,

Ishq bulog‘i ko‘z ochganda, yorilsa tosh, ne ajabdur

[“Javrikim jondin o‘tar” 79-bet]

Ushbu g‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo‘lib, unda ham bir qancha badiiy san‘atlardan unumli foydalanilgan. Shulardan mubolag‘a san‘ati hisoblanib, bunda biror narsa yoki voqea bo‘rttirib ko‘rsatiladi. Mubolag‘a san‘ati ishq bulog‘i ko‘z ochganda birikmasi natijasida yuzaga keltirilgan. Chunki ishqning bulog‘i bo‘lmaydi va buloqning ham ko‘zi ham bo‘lmaydi. Shu sababli ham mubolag‘a san‘ati yuzaga keltirilgan.

Keyingi keng tarqalgan bahrlardan yana biri rajaz hisoblanib, bunda 3- bo‘g‘ini ochiq bo‘lib, qolganlari yopiq bog‘in bo‘lib keladi. Biz esa quyida Shoira Qalandarovaning rajaz bahrida yozilgan g‘azalini misol sifatida keltirib, uni bir qadar tahlilga tortishga harakat qilib ko‘rdik:

Qir bag‘rida maskaning bor lolaqizg‘aldoq,

Poying o‘pib eridi qor. lolaqizg‘aldoq. [“Javrikim jondin o‘tar” 83-bet]

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Issue 7. July 2024

Ushbu g‘azal rajazi musammani mahzuf vaznida yozilgan bo‘lib, bu baytda bir qancha she‘riy san‘atlar qo‘llanilgan. Masalan, bor va qor so‘zlari vositasida tarse san‘ati yuzaga keltirilgan. Bu baytni tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, qirning bag‘rida lolaqizg‘aldoqli bir maskan bor va mana shu lolaqizg‘aldoq poyini o‘pib qor ham eridi degan ma‘no anglashiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak aruz mumtoz poetikasi Alisher Navoiylar davrida yuksak cho‘qqiga erishib, rivojlanib kelgan bo‘lishiga qaramasdan bugungi kunda ham bu vazn an‘naviy ravishda bugungi kunda ham aruz vaznida ko‘plab g‘azallar yozilib kelinmoqda. Shunday an‘anani davom qilib kelayotgan ijodkorlardan biri Shoira Shamsdir. Biz esa yuqorida 3 ta asosiy bahrlar haqida batafsil to‘xtalib o‘tdik va misollar orqali baytda qo‘llangan she‘riy sn‘atlarni topib, izohlab o‘tdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoira Shams “Javrikim jondin o‘tar”, “Quvonchbek-Mashhura” MCHJ nashriyoti Urganch-2018-yil
2. A. Hojiahmedov “Mumtoz badiiyat malohati”, “Sharq” nashriyoti-1999
3. T. Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari” Toshkent-2002

Research Science and
Innovation House